



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№12

**TA'LIM VA
INNOVATSION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№12/2024
DEKABR

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov
Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro
davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova
Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov
Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021
yil 30 sentyabrda 306/6-son
Qarori bilan **PEDAGOGIKA,**
PSIXOLOGIYA,
FILOLOGIYA, TARIX
FANLARI bo'yicha falsafa
doktori (PhD) va fan doktori
(DSc) ilmiy darajasiga
talabgorlarning dissertatsiya
ishlari yuzasidan asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsifi etilgan ilmiy nashrlar
ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

28.12.2024 y.

Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0324
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida
chop etildi. Buxoro shahar
<https://interscience.uz/> saytida
joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305

raqami bilan O'zbekiston
Ommaviy axborot vositalari davlat
ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va
2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan boshlab
har oyda 1 marta o'zbek, rus va
ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion
tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-
metodik jurnalidan ko'chirib
bosish tahririyatning roziligi bilan
amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning
to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI

Botirov J. T. Farg'ona vodiysida pichoqchilik hunarmandchiligining rivojlanishi	8
Burhanova S. T. Qadimgi Misr va Xitoy madaniyatining jaxon sivilizatsiyasiga tasir qilgan omillar	13
Ernazarov F. N. Sovet davrida o'zbek kino san'atining xalqaro madaniy aloqalarda tutgan o'rni	19
Matyakubov X. X. Qadimgi Xorazm vohasida bronza davri ijtimoiy munosabatlar tarixi	25
Mirzoraximov A. Sh. Toshkent toshbosmaxonalari shakllanishi va rivojlanish tarixi xususida	30
Tursunboyeva X. S. Jadid ma'rifatparvarlarining ilm-fan va ma'rifat yo'lida olib borgan harakatlari	35
Yodgorov Sh. Q. Buxoro amirligining Hindiston bilan savdo aloqalari.	41
Yuldasheva G. N. Strengthening of the material and technical base of general secondary education schools in kashkadarya region in the years of independence: historical analysis and results	45
Chorshanbiyev Sh. E. Hayot faoliyati xavfsizligi sohasida ekologik-iqtisodiy ta'lim mazmunining konsepsiyasi	51
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Alibekova Zilola Abdulkhayit qizi The definition and linguistic aspects of the concept of love in english and uzbek	58
Ashurova (Latipova) N. V. O'zbek tilshunosligi diskursi va matnida kogeziya hamda kogerentlik: izomorfik va allomorfik jihatlar.	63
Абдюжанова В. Х. Замонавий медиада муҳаррирнинг ўрни ва иштироки	68
Ахмедова С. Любовь сквозь призму культур	74
Bobomurotova S. R. "Ta'viz ul-oshiqin" devonidagi arab tilidan kirgan so'zlar tahlili	81
Baxshullayeva M. B. Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asarida hajviylik ifodasi	86
Cherginskaya I. A. Filologiya talabalarini zamonaviy rus tilida shartli munosabatlarni foydalanish usullarida tayyorlash	90
Do'stova S. S. Bayoniy devonining qo'lyozma nusxalari	98
Ergasheva G. X. Xorijiy va o'zbek olimlari tadqiqotlarida nutqiy etiketni ifodalovchi birliklarning o'rganilish tahlili	104
Eshmatova Y. B. O'zbek adabiyotshunosligida qissa janrining o'rganilishi	112

Xaydarova F. Badiiy matnga pragmatik yondashuvning ustuvor masalalari	
Hamrayeva Ch. N. Sadoqat" konseptini lingvistik va madaniy nuqtai nazardan o'rganishning ahamiyati	116
Karimova I. B. Ingliz va o'zbek maqollarida raqamlarning farqli jihatlari va madaniy ahamiyati	122
Karimova O. A. Navigating culturally diverse classrooms: perspectives on language acquisition, diversity, and teaching methods for ielts preparation	128
Lolaeva G. G. Публицистик услубнинг ўзига хос хусусиятлари ва информатив мазмуни.	136
Maxsudova X. Terminologiyaning nazariy asoslari va dolzarb muammolari	142
Saidova N. M. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi Rahim Vohidov talqinida	147
Turayeva D. M. Tinish belgilarining paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyoti	151
Zuhurova Sh. Z. O'zbekcha so'zlarni ingliz tiliga to'g'ri transliteratsiya qilishning muhim jihatlari	157
Islomov D. Sh. Fransuz va o'zbek tillaridagi punktuatsion belgilarning fonografik uslubiy vositalarda ifodalanishi	165
Allayorova Z.B., Elboyeva Sh. A. Benefits of using authentic materials in teaching english	171
Elboyeva Sh. A., Allayorova Z.B. Teaching vocabulary to young learners via songs	174
Абдулхакимова Н. Т. Совершенствование умений и базовых навыков академического письма на русском языке у студентов нефилологических специальностей	179
Ibodova M. S. Ona tili darslarida badiiy matnlarni o'qib tushunishda lug'atlardan foydalanish	185
Karimova I. B. Ingliz va o'zbek maqollarida raqamlarning farqli jihatlari va madaniy ahamiyati	188
Mamishhev O. E. Uloq-Ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslubiyati	194
Sobirova R. X. Matnlarda parema terminlarining adekvatlik xolati	198
Yusupova H.U. Role-playing simulation games that enhance the comprehension of cultural traits via vocabulary learning	206
Jalilov B. X. Ingliz va o'zbek tillarida virtual diskursning o'ziga xos tamoyillari	209
Ziyayeva D. A. The methods and strategies of teaching speech verbs in Uzbek and English languages	215
Jurakulova P. O. Some specifics of foreign language learning and importance of cross-cultural communication	223
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Almardanova S. B. Kasbiy shakllanishni o'rganishda tadqiqot metodikalarining qo'llanilishi va psixodiagnostika jarayoni natijalari	227
Avlaqulov B. R. Bo'lajak psixologlar uchun kompetentlik	232
Axmatova Z. E. Emotsional intellekt va uni rivojlanishining o'rganilganlik xolati.	237

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI PUNKTUATSION BELGILARNING FONOGRAFIK USLUBIY VOSITALARDA IFODALANISHI

*Islomov Dilshod Shomurodovich,
BuxDU doktoranti (DSc)
<https://orcid.org/0000-0001-8793-8031>*

Annotatsiya. Mazkur maqolada fonografik uslubiy vositalarning tinish belgilari orqali ifodalanishi, rivoji, shakllanishi, o'rganilishi, olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy-nazariy qarashlar o'rganildi va ularga munosabat bildirildi. Ikki noqardosh til doirasida tinish belgilarning mushtarak va differensial tomonlari ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga tinish belgilarning uslubiy, leksik-semantik xususiyatlari misollar asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Puntuatsiya, grafika, orfografiya, emotsional-ekspressiv xususiyatlar, tinish belgilar, defis, uslub, tahlil, zamonaviy yondashuv, fonetika.

ВЫРАЖЕНИЕ ФРАНЦУЗСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЗНАКОВ ПУНКТУАЦИИ ФОНОГРАФИЧЕСКИ-СТИЛИСТИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ

*Исломов Дильшод Шомуродович,
Докторант (DSc) БухГУ*

Аннотация. В данной статье изучены выражение, развитие, формирование, изучение фонографических методических средств через пунктуацию, научно-теоретические взгляды, высказанные учеными, и дана реакция на них. Общие и дифференциальные аспекты пунктуации были показаны в двух неродственных языках. При этом на примерах анализировались стилистические, лексико-семантические особенности пунктуации.

Ключевые слова: Пунктуация, графика, орфография, эмоционально-выразительные особенности, пунктуация, дефис, стиль, анализ, современный подход, фонетика.

EXPRESSION OF FRENCH AND UZBEK PUNCTUATION MARKS IN PHONOGRAPHIC STYLISTIC MEANS

*Islomov Dilshod Shomurodovich,
Doctoral student (DSc) of BuxDU*

Annotation. This article examines the expression, development, formation, study of phonographic methodological means through punctuation, scientific and theoretical views expressed by scientists, and gives a reaction to them. General and differential aspects of punctuation were shown in two unrelated languages. At the same time, stylistic, lexical and semantic features of punctuation were analyzed using examples.

Key words: Punctuation, graphics, spelling, emotional and expressive features, punctuation, hyphen, style, analysis, modern approach, phonetics.

Kirish: Jahon tilshunosligi taraqqiyoti jadal suratlarda o'sib borayotgan bir paytda zamonaviy yondashuvlar, integratsiyalar asosida fanlarning o'zaro kesishuvi

natijasida vujudga kelayotgan yangi fan va yo‘nalishlar alohida ahamiyatga ega. Bunga misol tariqasida psixolingvistika, korpuslingvistika, neyrolingvistika, fonostilistika, grafostilistikalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Mazkur fanlarning olimlar tomonidan zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganilayotganligi tahsinga loyiq.

Hozirgi kunda dunyo olimlari tomonidan tilshunoslikda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Xususan, bir til doirasida grafika, fonetika, stilistika kabi bo‘limlarning psixik holatlar, emotsional-ekspressiv xususiyatlar bilan bog‘liqligi og‘zaki va yozma nutq diskurslarida lingvistik shartlanishlari olimlar tomonidan yetarlicha o‘rganilgan. Ammo noqardosh tillarda, xususan, fransuz va o‘zbek tillari doirasida tilning komunikativ (aloqa qilish) va ekspressiv vazifalari tinish belgilari orqali og‘zaki va yozma nutq diskurslarda grammatik, leksik-semantik, strukturaviy, diskursiv-pragmatik hamda stilistik xususiyatlari qiyosiy va chog‘ishtirma tahlil usullarida yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotlarning amalda tadbiiq etilishi, o‘rganilishi, boshqa fanlar bilan bog‘lanishidagi yangi qirralarni ochib berishiga imkon beradi. Ayniqsa, og‘zaki va yozma nutqda grafostilistik vositalarning tildagi ekspressiv vazifalarni ifodalab kelishi mumkinligini aytish mumkin. Tinish va diakritik belgilar, shrift, abzas, qo‘sh tirnoq, bo‘sh joy, so‘zlarni kursiv bilan yozish kabilar grafostilistik vositalarning asosini tashkil etadi deyish mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Dunyo tilshunosligida turli tizimli tillar – ingliz, nemis, ispan, italyan, rus, qolaversa, fransuz va o‘zbek tillarida fonografik uslubiy vositalarning tinish belgilarda ifodalanishi, fonostilistik birliklarning diskursiv-pragmatik tamoyillari kabi masalalar tadqiqi borasida jahon hamda o‘zbek tilshunos olimlarining o‘rni benihoya katta. Bu yo‘nalishda I.V.Arnold, M.Grammon, A.Meye, S.Bullon, T.A.Znamenskaya, A.Mexrabian, P.E.Passy, A.Shleyxer, I.A. Boduen-de Kurtene, V.K.Kashkina, R.O.Yakobson, M.Xalle, G.Fant, L.V.Sherba, Sh.Balli, V.Ya.Zveginsev, N.S.Trubetskoy, N.M.Shanskiy, L.V.Bondarko, L.R.Zinder, M.N.Kojina, R.I.Avanesov, M.V.Panovlarning tadqiqotlari alohida e‘tiborga molikdir. Shu bilan birga o‘zbek tilshunosligida tinish belgilarning qo‘llanilishi, shakllanishi, tadqiq etilishi va rivojlanishida A. Fitrat, S. Ibrohimov, H. G‘oziyev, H.Jamolxonov, H.Dadaboev, A.Hojiev, A.Nurmonov, A.A.Abduazizov, O.Usmon, G‘. Abdurahmonov, K. Nazarov, E.Qilichev, A.Haydarov, B.Qilichev, A.Shomaqsudov, M.Norova kabi olimlarning o‘rni benihoya.

Muhokama: Punktatsiya so‘zi lotincha “punctum” – nuqta, kichkina dog‘ degan ma’nolarni bildirib, tilshunoslikda muayyan bir tilning alifbosidan tashqari diakritik (grafik) belgilar tizimi hisoblanadi hamda orfografiya bo‘limi orqali yozma tilning asosiy vositalarini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Tinash belgilari – muayyan bir tilda yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o‘zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan, intonatsiyalarni ko‘rsatish, matnga ritm berish, uni tuzish, so‘zlarda emotsional-ekspressiv xususiyatlarni ko‘rsatish va darajasini aniqlash, unga konnotativ, dennotativ mazmun ham beradigan hamda tinglovchi ruhiy holatiga psixologik ta’sir etishda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim grafostilistik vositalardir. Shu bilan birga, biror bir til uchun yozma nutqni idrok etish, anglash, tahlil qilish va uni tinglovchiga to‘g‘ri, tushunarli yetkazishning ham muhim vositasi hisoblanadi.

Rus tilshunos olimi A.P.Chexov 1888-yil 13- fevralda N.A.Xlopkovga yozgan xatida tinish belgilarini “yozma nutqni o‘qish notalari” deb atab, mohiyatan musiqiy notalariga o‘xshatganligidan ularning tilshunoslikdagi ahamiyati o‘zgacha ekanligini ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari fransuz tarixchisi, tanqidchi va siyosatchi Fransua Pyer Gizo Genriettega yozgan ushbu maktubida uning asarlarida tinish belgilarining yo‘qligidan xavotirda ekanligini alohida ta’kidlab o‘tgan. U fikrni ifodalashda, pauza va nuanslarni belgilashda tinish belgilarining ahamiyati juda muhim ekanligini ta’kidlab, grafostilistik vositalarning tilshunoslikda tushurib qoldirilishi biror bir matnni o‘qishda aldamchi bir xillikka olib kelishiga alohida urg‘u berib o‘tadi. Shu bilan birga fransuz tanqidchisining - “Azizim Genrietta, men yana sizning tinish belgilaringizga qarshi kurashaman. Sizning maktublaringizda hech kim yo‘q yoki deyarli yo‘q. Har qanday tinish belgisi, vergul yoki boshqa, ongning dam olishini, ko‘proq yoki kamroq uzoq to‘xtash vaqtini, tugallangan yoki to‘xtatilgan va keyingisidan belgi bilan ajratilgan fikrni belgilaydi. Siz bu dam olishlarni, bu intervallarni yo‘q qilasiz, suv oqganday, o‘q uchganday yozasiz. Bu foydasiz, chunki biz bildirgan fikrlar, xatda gapiradigan narsalar hammasi ham mutlaqo o‘xshash emas va barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan, xuddi suv tomchilaridek. G‘oyalar o‘rtasida tafovutlar, teng bo‘lmagan, lekin real masofalar mavjud bo‘lib, aynan shu farqlar, masofalar turli tinish belgilarini belgilashga mo‘ljallangan. Ularni olib tashlash orqali siz bema’ni ish qilyapsiz, siz g‘oyalar va narsalar orasidagi farqni, tabiiy masofani yo‘q qilasiz. Shuning uchun maktublaringizni o‘qiyotganda aql hayratga tushadi va hayratda qoladi, tinish belgilarining yo‘qligi siz yozgan hamma narsaga ma’lum bir noto‘g‘ri bir xillikni tarqatadi va siz aytayotgan narsalardan ularning haqiqiy fiziognomiyasini, ularning haqiqiy o‘rnini bir vaqtning o‘zida va mutlaqo o‘xshash va qo‘shni sifatida taqdim etish orqali olib tashlaydi deb bildirgan fikrlari, hamda, yozma muloqotda tinish belgilarining hal qiluvchi roli, aytilgan fikr va mulohazalarga haqiqiy ma’no berishini, uning tinish belgilarini qo‘llab-quvvatlashi nutqda mavjud bo‘lgan nozikliklar va turli ma’no qatlamlarini hurmat qilgan holda o‘qishni yanada aniq va ifodali qilishga qaratilgan” deb bildirgan fikrlari orqali shuni ko‘rishimiz mumkinki, tinish belgilari tilshunoslikda juda muhim ahamiyatga ega. Haqiqatdan ham yozma nutqni o‘qishdagi maxsus notalar deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqoridagi ilmiy qarashlar tilshunoslikni yoki muayyan bir tilni tinish va diakritik belgilersiz, shrift, abzas, qo‘shirnoq, bo‘sh joy, so‘zlarni kursiv bilan yozish kabi grafostilistik vositalarsiz tasavvur qilish qiyin ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar:

Shu o‘rinda o‘zbek tilshunos olimi K.Nazarovning “Hozirgi o‘zbek punktuatsiyasining yana bir asosi — rus punktuatsiya sistemasi ham bor. Buning dalili sifatida muallif ko‘pchilik tinish belgilarining (so‘roq, undov, qo‘shirnoq, ko‘p nuqta kabilarning) rus tilidan o‘zlashtirilganligini, shuningdek, rus punktuatsiyasi ilmiy—nazariy jihatdan ancha ishlangan va sistemalashgan bo‘lganligi uchun o‘zbek tilidagi punktuatsiya qoidalarining ayrimlari ham rus punktuatsiyasi qoidalariga asoslanib tuzilgan” deb ta’kidlagani o‘zbek tili punktuatsiyasini tuzish paytida rus tili punktuatsiyasining sezilarli darajada ta’siri bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Masalan: Ayol eriga qarab: “Siz xasis odam emassiz”, - dedi.

Yuqoridagi misolda “xasis” so‘zidan keyin vergul qo‘yilsa va og‘zaki nutqda qisqa pauza bilan aytilsa, gapdan erning saxiyligi emas, chindan ham xasis, baxil va qizg‘anchiq odam ekanligi ta’kidlanadi. Agar yozma diskursda vergul qo‘yilmasa, og‘zaki nutqda

qisqa pauza bo'lmasa urning saxiy, mehribon odam ekanligini tushunish mumkin.

O'zbek tilimiz ulug' turkiy tillarga borib taqaladi.

O'zbek tilimiz ulug', turkiy tillarga borib taqaladi.

Ilmli va bilimli bo'lgan ustozing kabi, ilmsiz bo'lma.

Ilmli va bilimli bo'lgan, ustozing kabi ilmsiz bo'lma.

Yuqoridagi misollarda vergulning o'rnini o'zgartirish orqali gaplardagi sifat so'z turkumiga oid bo'lgan so'zlarning ma'nosi bir so'zdan boshqa bir so'zga ko'chish hollari, o'z-o'zidan ma'no o'zgarishlarini keltirib chiqarmoqda.

Rus olimasi N.S.Valginaning "Tinish belgilarni o'rganish mumkin emas, balki ularni qo'llashni o'rganish kerak" deb bildirgan fikri tilshunoslikda bo'layotgan yangi yondashuvli taqiqotlar tinish belgilarining vazifalarini kengaytirib borayotganiga bir ishora desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Olimaning bu fikrini yuqroda keltirib o'tgan misollarga kengroq ta'rif ekanligi bilan ham alohida ahamiyatga ega.

Quyidagi jadvalda hozirgi o'zbek punktuatsiyasiga ko'rsatib o'tilgan bir nechta tinish belgilari kiradi.

Fransuz tilida esa quyidagi jadvalda keltirilgan eng asosiy tinish belgilarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Vergul belgisi (,)

Har xil konstruksiyali ikkita taklifni birlashtirganda yoki bu takliflardan birida allaqachon "va" bog'lovchisi bo'lsa, mazkur bog'lovchidan oldin vergul belgisi qo'yiladi.

Masalan:

Il avait prévu la faillite, et les événements lui ont donné raison.

Bugun muzeyga boramiz, va albatta, hisobot uchun rasmga tushamiz.

Yolg'iz borishga, ochig'ini aytsam, yuragim dov bermadi

Apostrof yoki appozitsiyadagi so'zlarni, kesilgan gaplarni, izohli elementlarni, tushuntirish qiymatiga tegishli bo'laklarni va boshqalarni ajratib turadi.

Masalan:

— La meilleure chose au Canada est, selon moi, la diversité de ses groupes ethniques.

— « C'est merveilleux », s'exclama-t-il, « c'est la solution à tous nos problèmes ! »

— « Vous êtes, néanmoins, bienvenus. »

Takrorlangan so'zni almashtiradi va ellipsni belgilaydi.

Georges étudie la littérature; Simon, la linguistique.

Nuqtali virgule (;)

Bir xil xususiyatdagi gaplarni yoki vergul bilan bo'lingan gap bo'laklarini ajratadi.

Masalan:

— J'ai toujours travaillé très consciencieusement; si l'on ne le fait pas, l'échec est certain.

Yer ko'karmas, el yashna-mas, bo'lmasa ko'k tomchisi;

Qaydan olein she'rni shoir, bo'lmasa ilhomchisi. (A. To'qay)

Qo'shtirnoq (« »)

Gap bo'laklarini, hikmatli so'zlarni, olimlarning fikrlarini ajratib ko'rsatib berish va gapdagi ekspressiv-emotsional bo'yoqdorlikni namoyon qilish maqsadida ular qo'shtirnoqqa olinadi.

Masalan:

«Ils n'ont jamais eu ce qu'on a eu en Acadie — une terre, une famille et la liberté»

«À la vue d'un objet, il est probable qu'on ne remarque pas ses caractéristiques —

sa couleur, sa taille, sa forme — mais qu'on le classifie immédiatement en catégorie. »

“Ikki musulmonning birlashgani ikki qo‘l kabidir: bir-birini yuvib poklaydi. Bir qo‘l chala yuvadi, o‘zidan boshqasini yuvolmaydi. Ammo ikki qo‘l bir-birini tozalaydi”.

Toxir Malik «Odamiylik mulki».

«To‘yonani ana topamiz , mana topamiz « deb to‘yga ham uch kun qoldi . «O‘zingda yo‘q , olamda yo‘q» deganlari rost ekan. Kimdan qarz so‘rasak , «Jonim bilan berardim-u...» deb yelka qisib , yer chizadi. O‘zimning urug‘larimdan so‘rashga istihola qilaman, ular ham akamning ikkita qiz uzatayotganlari sababli biz kabi borini ularga to‘yona qilib berib bo‘lishgan.

Ikki nuqta (:)

Sanoq, iqtibos yoki xabar qilingan so‘zlarni, tushuntirishni, dalilni, sabab yoki oqibat haqida hisobotni, misolni e‘lon qilish uchun ikki nuqta belgisi ishlatiladi . Ikki nuqta belgisidan keyin albatta bo‘sh joy keladi.

Masalan:

Nous avons renoncé à ce projet: il était irréalisable.

— Il a dit, à voix haute : « Ignace, t’as raison. »

— J’ai tout perdu : vêtements, bijoux, livres, souvenirs ...

Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy afzali va bir oz qozon.

(“O‘tgan kunlar”)

Ushbu uch narsaga ishonchingiz komil bo‘lsin:

Axiri xo‘jayinga «portladim» :

- Men-ku mayli , ertaga o‘zingiz «To‘yga quruqdan - quruq borolmayman» deb kuygan yuragimni battar kuydirasiz.

Xulosa:

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, fransuz va o‘zbek punktuatsiyasi nazariy jihatdan uch muhim belgi – mazmun, ohang va gapning grammatik qurilish butunligiga asoslanadi. Mazkur nazariy jihatlar orqali gaplarning leksik-semantik, grammatik, stilistik xususiyatlarini ochib beradi, gaplarning ohangdorligini oshiradi, emotsional-ekspressiv tomonlarini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham dunyo tilshunosligini lingvistik vositalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Olimlarning ta’kidlaganlaridek, tinish belgilarni yozma nutqning o‘qish notalari desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Grafostilistik vositalar - muayyan bir tilda yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o‘zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladigan, intonatsiyalarni ko‘rsatish, matnga ritm berish, uni tuzish, so‘zlarda emotsional-ekspressiv xususiyatlarni ko‘rsatish va darajasini aniqlash, unga konnotativ, dennotativ mazmun ham beradigan hamda tinglovchi ruhiy holatiga psixologik ta’sir etishda asosiy ahamiyatga egadir. Shu bilan birga, lingvistik vositalar biror bir til uchun yozma nutqni idrok etish, anglash, tahlil qilish va uni tinglovchiga to‘g‘ri, tushunarli yetkazishning ham muhim vositasi hisoblanadi.

Фойданилган адабиётлар рўйхати

1. Назаров Карим. Ўзбек тили пунктуацияси.- Т.: Ўқитувчи, 1976.-Б.-35. Яна шу муаллиф: Тиниш белгилари ва ёзма нутқ.- Т.: ФАН, 1974. — Б. 8-9.

2. Фахри Камол. Ўзбек орфографияси ҳақида . — Т.: Ўқув. Пед. Дав. нашр, 1957. — б.58-62.

3. Графема» термини фанга И.А.Бодуэн де Куртенэ томонидан киритилган.

4. Куртенэ И.А. Об отношении русского письма к русскому языку.- СПб., 1912,-

C. 27.

5. A. Haydarov “Grafik vositalarning uslubiy xususiyatlari” o‘quv uslubiy qo‘llanma, 2021. - 60 -72 b.

6. Shomurodovich I. D. À PROPOS DU TERME PHONOPSYCHOLOGIE // Conferencea. – 2023. – C. 45-47.

7. Shomurodovich I. D. Le role de l’emotion en phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – C. 77-79.

8. Islomov D. His-tuyg‘uning paydo bo‘lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim kerroll ellis izard talqinida //Farg‘ona davlat universiteti. – 2024. – №. 2. – C. 96-96.

9. Islomov D. Tilshunoslikda fonopsixologiya atamasining kirib kelishi //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2024. – Т. 47. – №. 47.

10. Islomov D. S. The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9 [Электронный ресурс].

11. Islomov D. S. Similarity aspects of uzbek and french phonetics //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – Т. 10. – №. 10.

12. Shomurodovich I. D. The emergence of psycholinguistics, the scientists’ scientific-theoretical views and its connection with other sciences //journal of multidisciplinary bulletin. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – C. 213-218.

13. Islomov D. S. The articulation of sounds in french. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10 (10) [Электронный ресурс].

14. Islomov D. Section: cultural science //modern scientific research. – 2019. – C. 21.

15. Shomurodovich I. D. Le role de l’emotion en phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – C. 77-79.

16. Islomov D. His-tuyg‘uning paydo bo‘lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim kerroll ellis izard talqinida //Farg‘ona davlat universiteti. – 2024. – №. 2. – C. 96-96.